



UDK:37.015.3:159.955

Oydin USMONOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: oydinusmonova66@gmail.com

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti professori, p.f.d Sh.Shodmonova taqrizi asosida

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING STUDENTS' CRITICAL THINKING SKILLS

Annotation

This article presents the theoretical and methodological foundations of developing students' critical thinking skills, presents pedagogical and psychological approaches. The conceptual foundations of critical thinking are explained in detail, and the scientific research conducted by world scientists on critical thinking is also discussed in detail.

Key words: Critical thinking, evaluation, inference, mental operations, judgment, reasoning, decision-making, intellectual capacity.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье представлены теоретико-методологические основы развития критического мышления учащихся, представлены педагогические и психологические подходы. Подробно изложены концептуальные основы критического мышления, а также подробно рассмотрены научные исследования, проведённые мировыми учёными в этой области.

Ключевые слова: Критическое мышление, оценка, вывод, мыслительные операции, суждение, рассуждение, принятие решений, интеллектуальные способности.

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqolada talabalarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari keltirilgan bo'lib, pedagogik va psixologik tomondan yondashuvlar izohlangan. Tanqidiy fikrlashning konseptual asoslari atroflicha yoritilib, jahon olimlari tomonidan tanqidiy fikrlash bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar ham batafsil muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Tanqidiy fikrlash, baholash, xulosa chiqarish, aqliy operatsiyalar, mulohaza yuritish, fikrlash, qaror qabul qilish, intellektual qobiliyat.

Kirish. Tanqidiy fikrlash tushunchasi zamonaviy pedagogika va psixologiyada eng muhim kategoriyalardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotchilar uni shaxsning mavjud bilim va axborotlarni chuqur tahlil qilish, ularni solishtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish, yangi g'oyalarni yaratish va dalillash jarayoni sifatida izohlaydilar. Tanqidiy fikrlash zamonaviy ta'lim jarayonida eng muhim kognitiv kompetensiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda yuqori malakali mutaxassis nafaqat o'z sohasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, balki mavjud ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilish, ular orasidan eng ishonchli va dolzarbini ajratib olish, shuningdek, xulosalarni asoslash qobiliyatiga ega bo'lishi talab qilinadi. Shu sababli tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat ta'lim jarayonining, balki jamiyat taraqqiyotining ham asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash- bu faqatgina tanqid qilish emas, balki mavjud fikrlarni tahlil qilish, ular orasida eng maqbulini tanlab olish, xatolardan xoli, asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmasidir. Talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanishi, avvalo, ularning intellektual faolligi, izlanishga moyilligi va mustaqil o'rganishga bo'lgan ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq. Mazkur ko'nikmalarning asosiy tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, dalillash, xulosa chiqarish, shuningdek, muammolarga turli nuqtayi nazardan qarash kabi jihatlar ko'rsatiladi. Bunday sifatlar talabaning nafaqat o'quv jarayonida, balki kundalik hayotda ham oqilona qarorlar qabul qilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tanqidiy fikrlash masalasiga ilk marotaba ilmiy e'tibor berganlardan biri amerikalik pragmatist olim J. Dyuidir. U 1910-yilda chop etilgan "Fikrlash qanday amalga oshiriladi?" asarida tanqidiy fikrlashni "tafakkurning faol va davomiy shakli, insonning o'z tajribasi ustida izchil mulohaza yuritishi"[1] sifatida talqin qiladi. Dyuiга ko'ra, insonning shunchaki bilim egallashi emas, balki bilimni qayta ishlashi, tekshirishi va unga tanqidiy munosabatda bo'lishi muhimdir. Jon Dyui tanqidiy fikrlashni tafakkurning faol va davomiy shakli sifatida talqin etadi. U o'zining "How We Think" asarida shunday yozadi: "Tanqidiy fikrlash-bu insonning o'z tajribasi ustida izchil mulohaza yuritishi, sabab va oqibatlarini aniqlashga intilishi bilan tavsiflanadi"[2] Demak, Dyui uchun tanqidiy fikrlash-bu tafakkur jarayonining davomiyligi va izchilligi bo'lib sanalgan.

Robert Ennis esa tanqidiy fikrlashni yanada amaliy ma'noda izohlaydi. Unga ko'ra, tanqidiy fikrlash "nima qilayotganini va nega qilayotganini bilishga, shuningdek, dalillarga asoslangan qaror qabul qilishga o'rgatadi". Ennisning ta'rifida tanqidiy fikrlash shaxsning qaror qabul qilishdagi ongli va mas'uliyatli yondashuvini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Brookfield tanqidiy fikrlashning to'rtta asosiy komponentini ajratadi: 1) shaxsiy tajribani tahlil qilish; 2) ijtimoiy madaniy kontekstni anglash; 3) turli qarashlar bilan solishtirish; 4) kelgusida faoliyatni takomillashtirish. Bu komponentlar talabaning nafaqat bilim doirasini kengaytiradi, balki o'ziga xos fikrlash madaniyatini ham shakllantiradi.

Shuningdek, Stiven Brookfield ta'rifiga ko'ra, tanqidiy fikrlash- bu shaxsning o'z taxmin va e'tiqodlarini qayta ko'rib chiqishi, ularning asoslanganlik darajasini tekshirishi hamda muqobil qarashlarga ochiq bo'lishidir. U tanqidiy fikrlashni o'z-o'zini nazorat qilish va refleksiya bilan bevosita bog'liq tushuncha sifatida talqin etadi. Piter Facione o'zining keng tarqalgan "Delphi Report" asarida tanqidiy fikrlashni "tahlil qilish, baholash, izohlash va xulosalashni o'z ichiga olgan maqsadli va intellektual jihatdan tartibli fikrlash"[3] deb ataydi. U tanqidiy fikrlashni kognitiv ko'nikmalar tizimi sifatida ko'radi va bunda dalillarni ishonchligi hamda mantiqiy izchilligi muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi.

Diana Halpern tanqidiy fikrlashni muammolarni echish va qaror qabul qilish jarayonida insonni to'g'ri, aniq va asosli fikrlashga yo'naltiruvchi qobiliyat deb biladi. Uning fikricha, tanqidiy fikrlash- bu odatiy bilimlarni qo'llash emas, balki muayyan vaziyatga ijodiy va ratsional yondashishdir. Rus olimasi I.V. Mushtavinskaya tanqidiy fikrlashni o'quvchilarni shaxs sifatida shakllantiruvchi asosiy pedagogik texnologiya sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, "tanqidiy fikrlash o'quvchiga tayyor bilimlarni qabul qilish emas, balki ularni qayta ishlab, yangidan hosil qilish imkonini beradi"[4]. Shuningdek, U.V. Bolotova tanqidiy fikrlashni zamonaviy ta'limda axborot oqimlari ta'sirida yoshlarni himoya qiluvchi intellektual vosita sifatida talqin etadi. Uning nazarida, talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, birinchi navbatda, ularni manipulyativ axborotlardan himoya qilish va mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirishdir. O'zbek olimlari ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratganlar. Tanqidiy fikrlashning pedagogik jarayondagi ahamiyatini o'zbek tadqiqotchilaridan E. G'oziyev alohida ta'kidlaydi. Uning yozishicha, "talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'limning bosh maqsadlaridan biri bo'lib, bu jarayon ularning shaxs sifatida har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi"[5]. O'zbekistonlik olimlardan F.O.Xodjayeva ham tanqidiy fikrlashni o'quvchilarda shakllantirish masalasiga e'tibor qaratib, "Tanqidiy fikrlash shaxsning axborotni faqat qabul qilibgina qolmasdan, uni tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va dalillar asosida xulosa chiqarishga o'rgatadi"[6] deya ta'kidlaydi. Bu qarash ayniqsa talabalarining intellektual rivojida katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida tanqidiy fikrlash mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va ijtimoiy faollik bilan uzviy bog'langan holda talqin etiladi. Shuningdek, talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bevosita ta'lim jarayonining samaradorligiga ham bog'liqdir. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'quvchilarni fikrlashga undash, savol-javob, muammoli vaziyat yaratish, guruhii muhokama, bahs-munozara kabi interfaol metodlar ayniqsa muhimdir. Bunday yondashuv talabalarining bilimlarni tayyor qabul qilishi emas, balki mustaqil xulosaga kelishi, dalil-isbotlar keltirish orqali o'z pozitsiyasini himoya qilishga undaydi. Shunday qilib, tanqidiy fikrlashning falsafiy asoslari shubha, refleksiya va mantiqiy izlanish kabi qadriyatlarga tayanadi. Pedagogik asoslar esa o'quv jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish, talabalarining mustaqil tahlil va mulohazalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Boshqacha aytganda, falsafiy yondashuv tanqidiy fikrlashning mazmunini, pedagogik yondashuv esa uning shakllanish jarayonini ochib beradi.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri talabalarining nafaqat bilim olishlari, balki mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishlarini ta'minlashdir. Jamiyat taraqqiyoti, ilm-fanning keskin rivojlanishi, yangi texnologiyalar oqimi insondan tezkor qaror qabul qilishni, mavjud muammolarga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Shu bois talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi nafaqat ta'lim

tizimining, balki butun jamiyatning strategik maqsadlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Tahlil va natijalar. Shu o'rinda aytish joizki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish, ular ongida axborotlarga tanqidiy munosabatni shakllantirish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash zamonaviy ta'lim jarayonining markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. U inson tafakkurining yuqori darajadagi sifatini ifodalaydi va shaxsning nafaqat bilimlarni egallashi, balki ularni qayta ishlash, tahlil qilish, baholash va amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bugungi globallashuv sharoitida talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish nafaqat nazariy, balki ijtimoiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois bu tushuncha atrofida ko'plab olimlar turlicha yondashuvlarni ilgari surganlar. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda turli metodologik yondashuvlar mavjud. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish masalasiga nazariy jihatdan yondashilganda, u turli fanlar- falsafa, pedagogika, psixologiya va sotsiologiya doirasida turlicha talqin qilinadi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu hodisaning ko'p qirrali va murakkab tabiatga ega ekanini ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlashning ildizlari qadimgi falsafiy qarashlarda mujassamdir. Jumladan, qadimgi yunon faylasufi Sokrat shubha va savol berish metodini qo'llab, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undagan.

Uning mashhur "Sokratik savol-javob" usuli hozirgi kunda ham tanqidiy fikrlashning metodologik asoslaridan biri sifatida qaraladi. Psixologik nuqtayi nazardan u tafakkurning yuqori bosqichi sifatida talqin qilinadi. L.S. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi"[7] haqidagi ta'limoti ham tanqidiy fikrlashni shakllantirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Unga ko'ra, talaba murakkab muammolarni o'qituvchi va tengdoshlari yordami bilan hal qilish jarayonida mustaqil tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bu jarayon, o'z navbatida, uning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Psixologik yondashuvlardan biri sifatida J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasini alohida ta'kidlash mumkin. Uning fikricha, inson tafakkuri asta-sekinlik bilan murakkab bosqichlar orqali rivojlanadi va tanqidiy fikrlash yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni ifodalaydi[8].

Pedagogik yondashuv esa uni ta'lim jarayonining maqsadi va vositasi sifatida ko'radi. Pedagogik yondashuvlarning muhim jihatlaridan biri shundaki, ular tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida ta'lim mazmuni va metodlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka e'tibor qaratadilar. Masalan, muammoli ta'lim, keys-stadi, debat va munozara metodlari talabalarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishda samarali vosita sifatida ko'riladi. Tanqidiy fikrlash tushunchasi so'nggi o'n yilliklarda jahon pedagogikasida keng o'rganilayotgan masalalardan biridir. R. Paul va L. Elder "tanqidiy fikrlash - bu intellektual jihatdan intizomli fikrlash bo'lib, u tahlil, baholash va yaxlit xulosalar chiqarishni talab etadi"[9] deya ta'rif beradi. Ularning fikricha, bu jarayon faqat bilimni egallash emas, balki uning asoslanganligini tekshirish, qo'llash va yangi vaziyatlarda ijodkorlik bilan ishlata olishni ham o'z ichiga oladi. Amerikalik olim D. Halpern bu borada shunday deydi: "Tanqidiy fikrlash - bu ongli va ko'nikmaga asoslangan faoliyat bo'lib, u insonni to'g'ri qaror qabul qilish, muammolarga echim topish va mantiqiy xulosalar chiqarishga yo'naltiradi"[10]. Ushbu ta'rif shuni anglatadiki, tanqidiy fikrlash shunchaki bilish emas, balki bilimlarni tahlil qilish, ularni baholash va asoslash jarayonidir. Shuningdek, R. Ennis tanqidiy fikrlashni "ongli va maqsadli fikrlash" sifatida izohlagan. Uning fikricha, bu ko'nikma insonni "nima qilayotganini va nega qilayotganini bilishga, shuningdek, dalillarga asoslangan qaror qabul qilishga"[11] o'rgatadi. Bu jihat tanqidiy fikrlashni odatiy fikrlashdan ajratib turadi. A.Ergashev talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishni

zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng muhim maqsadlaridan biri sifatida ko'rsatadi. Turli olimlarning yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilganda, bir nechta umumiy jihatlar ko'zga tashlanadi:

birinchidan, tanqidiy fikrlash- bu shaxsning intellektual faoliyati bo'lib, bilimlarni qayta ishlash, tahlil qilish va baholashni talab qiladi;

barcha ta'riflarda tanqidiy fikrlashning qaror qabul qilish va muammolarni hal etishdagi ahamiyati alohida qayd etiladi;

olimlarning fikrlarida tafakkurning refleksivligi va mustaqilligi alohida o'rin tutadi.

Shu jihatdan, tanqidiy fikrlash tushunchasini keng ma'noda inson tafakkurining sifat ko'rsatkichi sifatida baholash mumkin. U nafaqat talabning bilim olish jarayonida, balki uning ijtimoiy hayotida ham zarur ko'nikma sifatida shakllanadi. Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni ko'plab ichki va tashqi to'siqlar bilan murakkablashadi. Psixologik, metodik va ijtimoiy-madaniy omillarni hisobga olmasdan bu ko'nikmalarni samarali shakllantirish qiyin. Shu nuqtai nazardan, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Shaxsiy motivatsiya va mustaqil fikrlash madaniyati etarli darajada shakllanmagan talabalarda tanqidiy fikrlash sust rivojlanadi. Shuning uchun talabalarni rag'batlantiruvchi motivatsion muhit yaratish zarur. Oliy ta'limda reproduktiv yondashuvlar ustunligi tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Ta'lim jarayonida tahliliy topshiriqlar, keys-stadi va muammoli vaziyatlar ustuvor bo'lishi kerak. Baholash tizimini takomillashtirish

talab etiladi. Faqat testga asoslangan baholash talabning tanqidiy fikrlash darajasini aniqlash imkonini bermaydi. Shu bois ochiq savollar, loyihaviy ishlar va portfoliolarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Madaniy an'analarni hisobga olish. O'qituvchilar "savol berish madaniyati" ni savodxonligini oshirish zamonaviy talaba uchun muhim talabdir. Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi noto'g'ri ma'lumotlardan himoyalash faqat tanqidiy fikrlash orqali amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar. Nazariy manbalar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlash oddiy bilimlarni yod olish emas, balki ularni tahlil qilish, solishtirish, baholash va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shu bois bu ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida talabning intellektual faoliyati, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va axborotni qayta ishlash malakasi markaziy o'rinni egallaydi. Shuningdek, talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning metodologik asoslari ularning motivatsiyasi, shaxsiy faolligi va mustaqil fikr yuritishga bo'lgan tayyorgarligi bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim jarayonida nazariy yondashuvlarni amaliy metodlar-muammoli ta'lim, keys-stadi, debat, refleksiya va ijodiy topshiriqlar bilan uyg'unlashtirish talab qilinadi. Xulosa qilib aytganda, talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari o'quv jarayonini yangicha tashkil etishni, shuningdek, o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlikka asoslangan dialogik muhitni yaratishni taqozo etadi. Bu esa nafaqat bilimni chuqurlashtiradi, balki talabani mustaqil, ijtimoiy faol va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Dewey, J. (1910). *How We Think*. Boston: D.C. Heath & Co.
2. Dewey, J. (1910). *How We Think*. Boston: D.C. Heath & Co.
3. Facione, P. A. (1990). *Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction. Research Findings and Recommendations*. Newark, DE: American Philosophical Association.
4. Mushtavinskaya, I.V. (2002). *Texnologiya razvitiya kriticheskogo myshleniya: nauchno-metodicheskoe osmyslenie. Metodist*.
5. G'oziyev, E. (2018). *O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari*. Toshkent: Fan.
6. Xodjayeve, F. O. (2017). *O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish va uning muhim jihatlari*. Zamonaviy ta'lim, 2017-yil, №6.
7. Выготский, Л. С. (1984). *Собрание сочинений: В 6-ти т. Т. 4. Москва: Педагогика*.
8. Пиаже, Ж. (1994). *Речь и мышление ребенка*. Москва: Педагогика.
9. Paul, R., & Elder, L. (2002). *Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Professional and Personal Life*. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall.
10. Halpern, D. F. (2014). *Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking*. Routledge.
11. Ennis, R. H. (1996). *Critical Thinking*. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall.